



MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA ISHLAB CHIQRISHGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

I.f.d. Ruziyeva Dilobar Isomjonovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Nazarova Asal Nuriddin qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada xorijiy investitsiyalarning sanoat ishlab chiqarishdagi o'rnining dolzarbligi, investitsiyalarning iqtisodiyotga ijobiy ta'siri, iqtisodiyot tarmoqlarida investitsiyalardan samarali foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari va investitsiyalarni jalb qilish istiqbollari, investitsiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg'or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib kelishi yo'nalishlari, O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalar samaradorligi tahlili keltirilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya, FDI (to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar), iqtisodiy integratsiya, investor, investitsiya loyihasi, xorijiy investitsiya, kompaniya, korporatsiya, investitsiya muhiti, asosiy fondlar, rekonstruktsiya.

ОСОБЕННОСТИ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ИНВЕСТИЦИЙ В РАЗВИТИЕ ЭКОНОМИКИ СТРАН

Д.э.н. Рузиева Дилобар Исомжоновна
Тошкентский государственный
экономический университет
Назарова Асал Нуриддин қизи
Тошкентский государственный
экономический университет

Аннотация. В данной статье рассмотрены значение роли иностранных инвестиций в промышленное производство, положительное влияние инвестиций на экономику, меры по организацию эффективного использования инвестиций в отраслях экономики и перспективы привлечения инвестиций, наряду с инвестициями, новых технологий. Представлены передовой опыт, направления прихода высококвалифицированных специалистов, анализ эффективности инвестиций в развитие экономики Узбекистана.

Ключевые слова: инвестиции, ПИИ (прямые иностранные инвестиции), экономическая интеграция, инвестор, инвестиционный проект, иностранные инвестиции, компания, корпорация, инвестиционная среда, капитальные фонды, реконструкция.

SPECIFIC CHARACTERISTICS OF ATTRACTING INVESTMENTS TO DEVELOPMENT IN THE COUNTRY'S ECONOMY

*DSc Ruzieva Dilobar Isomjonovna
Tashkent State University of Economy
Nazarova Asal Nuriddin daughter
Tashkent State University of Economy*

Abstract. *In this article, the relevance of the role of foreign investments in industrial production, the positive impact of investments on the economy, measures to organize the effective use of investments in economic sectors and the prospects of attracting investments, along with investment, new technologies, advanced experiences, the directions of entry of highly qualified specialists, the analysis of the efficiency of investments in the development of the economy of Uzbekistan are presented.*

Keywords: *investment, FDI (foreign direct investment), economic integration, investor, investment project, foreign investment, company, corporation, investment environment, capital fund, reconstruction*

Kirish.

Sanoat ishlab chiqarishi jahon iqtisodiyotining eng muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, u doimo rivojlanib bormoqda. Raqobatbardoshlikni saqlab qolish va biznesni rivojlantirish uchun ishlab chiqarish ob'ektlari eng so'nggi tendentsiyalarga mos kelishi kerak. Bunda investitsiyalarning o'рни alohida ahamiyat kasb etadi va bu borada mamlakat iqtisodiyotida investitsion muhitni shakllantirish va takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

So'nggi yillarda sanoatni rivojlantirish maqsadida 31 milliard dollarlik to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilindi³⁸. Shu yilning o'zida iqtisodiyotimizga 8 milliard dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar kirib keldi (Мурожаатнома, 2022).

Natijada o'tgan 5 yilda sanoat 1,4 barobar, eksport 1,5 barobarga oshganligini ko'rish mumkin. Kelgusi 5 yilda iqtisodiyot barqaror o'sishi uchun sanoatni yana 1,5 barobarga oshirish, eksportni 30 milliard dollarga yetkazish maqsad qilib qo'yilgan. Buning uchun 120 milliard dollar sarmoya, jumladan, 70 milliard dollar xorijiy investitsiya zarurligini, joriy yilda 11 milliard dollarlik to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish, 2023 yilning yakunigacha 304 ta yirik va 3 mingta hududiy loyiha ishga tushirilishi rejalashtirilgan. Ularning natijasida qo'shimcha 10 trillion so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yish va sanoat bo'yicha tarmoq va hududlardagi qo'shimcha zaxiralarni ishga solish, mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan qator ishlar amalga oshirilish vazifalari belgalib berilganligini Sh.Mirziyoev Investitsiya va sanoat sohalaridagi ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan 2023-yil 27-fevraldagi ma'ruzasidan ko'rish mumkin³⁹.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya - bu iqtisodiyot drayveri ya'ni iqtisodiyotning yuragi hisoblanadi. Mamlakat iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb qilish orqali turli soha va tarmoqlarga yangi texnologiyalar, ilg'or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqish va jahon bozoriga chiqish imkoniyatining oshishiga erishiladi.

Ma'lumki, mamlakat iqtisodiyotida faoliyat olib boradigan har qanday sohaning me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan qo'llab-quvvatlanishi shu tarmoq yoki sohaning rivojini kafolatlaydi.

³⁸ <https://president.uz/uz/lists/view/5965>

³⁹ <https://president.uz/uz/lists/view/5965>

Yurtimizda ham sanoat ishlab chiqarishga investitsiyalarni jalb qilishga qaratilgan, uning faoliyatini tartibga soluvchi, uni rag'batlantiruvchi qator Qonun va Qonun osti hujjatlar mavjud. Misol uchun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-2019-yillarda investitsiyaviy va infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirishni jadallashtirishga oid qo'shimcha chora- tadbirlar tshg'risida" gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2019-yilga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "To'gridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28- dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2023-2025-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-459-son Qarori va yana bir qator qonun hujjatlari orqali investitsion faoliyat va investorlarning huquqlari himoya qilinadi va ularga qulay ish yuritish uchun shart-sharoitlar yaratib beradi. Bu qonun hujjatlarida ko'proq investorlarga turli imtiyozlar berishga asosiy urg'u qaratilganini ko'rishimiz mumkin. Bunda esa bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishning eng asosiy omili deb qaralayotgan investitsiyalarni ko'proq jalb qilish va shu orqali iqtisodiyotimizni jadal rivojlantirish maqsad qilib olingan. Zero, investitsiyalar iqtisodiy o'sish va rivojlanishning eng asosiy bo'g'ini bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi.

Sanoat ishlab chiqarish korxonalariga investitsiyalarni jalb etish borasida Dmitrieva (2015) sanoat ishlab chiqarish korxonalarini faoliyatiga investitsiyalashni jalb etishda ularning tarmoq xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yondashish borasidagi muammolarni yoritgan.

James Chen: Chet el investitsiyalari deganda, xorijiy investor tomonidan mahalliy kompaniyalar va boshqa davlatning aktivlariga qo'yilgan investitsiyalar tushuniladi. Yirik transmilliy korporatsiyalar boshqa mamlakatlarda filiallarini ochish va investitsiyalarini kengaytirish orqali iqtisodiy o'sish uchun yangi imkoniyatlar izlaydi⁴⁰.

Gudel (2009) sanoat ishlab chiqarish korxonalarining investitsion faoliyatini amalga oshirishda investitsiyalarning samarasi va ularning samaradorlik ko'rsatkichlari bo'yicha tadqiqot olib borgan.

Barabanova (2013) sanoat ishlab chiqarish korxonalarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlarini tadqiq etishda, asosiy vositalarning ishlashi, yangilanish mexanizmini o'rgangan.

Adam Hayes: (2022) To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (FDI) - bu boshqa davlatning investori, kompaniyasi yoki hukumati tomonidan xorijiy kompaniya yoki loyihadagi egalik ulushi. Umuman olganda, bu atama xorijiy biznesda katta ulushga ega bo'lish yoki yangi mintaqada operatsiyalarni kengaytirish uchun uni to'g'ridan-to'g'ri sotib olish bo'yicha biznes qarorini tavsiflash uchun ishlatiladi. Bu atama odatda faqat xorijiy kompaniyadagi aksiya investitsiyasini tavsiflash uchun ishlatilmaydi. To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar xalqaro iqtisodiy integratsiyaning asosiy elementi hisoblanadi, chunki u iqtisodiyotlar o'rtasida barqaror va uzoq muddatli aloqalarni yaratadi.

Wang, Liang, Li, Yanglar (2016) esa sanoat ishlab chiqarish korxonalarining zamonaviy texnologiyali ishlanmalariga yo'naltiriladigan investitsiyalar va ularning ilmiy ishlanmalarini moliyalashtirish manbalari, ilmiy-tadqiqot, investitsiyalar va tadbirkorlik riski o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganishgan.

⁴⁰ <https://www.investopedia.com/contributors/101529/>

G'ozibekov (1999) investitsiyani makroiqtisodiy darajadagi o'rnini nazariy jihatdan quyidagicha ta'riflagan: «makroiqtisodiy darajada investitsiyalar, ishlab chiqarish vositalarini takror ishlab chiqarishga, uy-joy fondini, tovar zaxiralarini o'stirish va shu kabilarga sarf qilingan chiqimlarining bir qismi, ya'ni yalpi ichki mahsulotning kapitalni o'stirishga qaratilgan va joriy davrda ishlatilmagan qismi»dir deb ta'riflaydi.

Ko'ziyeva (2008) xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag'batlantirishning moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlarini tadqiq etgan holda milliy iqtisodiyotni erkinlashtirish.

Ruziyeva (2023) «Kichik biznes sub'ektlarining investitsiya faoliyati – bu asosiy faoliyat doirasida umumiy xo'jalik yuritish shart-sharoitlari yoki imkoniyatlari jihatidan muayyan cheklanishlarga duch keluvchi hamda mazkur faoliyat ko'rsatkichlarining tegishli qonunchilikda belgilab berilgan miqdor va sifat mezonlariga muvofiq keluvchi iqtisodiy sub'ektlarning tavakkalchilikni inobatga olgan holda kelajakda investitsion daromadni olishga yoki faoliyatni kengaytirishga qaratilgan investitsion qo'yilmalar bilan bog'liq amaliy chora-tadbirlar majmuidir».

Tadqiqot metodologiyasi.

Ilmiy maqolani yoritishda sanoat ishlab chiqarish korxonalari faoliyatini investitsiyalashga qaratilgan O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy sohalardagi taniqli olimlarning ilmiy asarlari, ularning mazmun, mohiyati o'rganilib, mazkur sektorni rivojlantirish va bunda ilg'or xorijiy davlatlar tajribasini o'rganishni ifodalovchi mavjud ko'rsatkichlar statistik tahlil qilindi. Shu bilan birga, tadqiqot jarayonida mavzuga oid statistik ma'lumotlar va nazariyalarni o'rganishda mantiqiy fikrlash, ilmiy mushohada, tizimli yondashuv, statistik hamda qiyosiy tahlil, an'anaviy tadqiqot usullaridan, ya'ni kuzatuv, taqqoslama usullari qo'llanilgan. Mavzuni yoritishda ilmiy texnikaviy axborot manbalaridan, ya'ni darsliklar, o'quv qo'llanmalar, xorijiy adabiyotlar, davriy matbuot, ilmiy-amaliy anjuman to'plamlari va internet ma'lumotlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Mamlakat iqtisodiyotida yuqori texnologiyalarga asoslangan sanoat yo'nalishlarini jadal rivojlantirish, sanoat tarmoqlariga xususiy investitsiyalarni keng jalb etish orqali raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, hududlarda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish hisobidan aholi daromadlarini oshirish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, Sh.Mirziyoyev 2019-yilning 8-aprel kunida xorijiy investitsiyalarning o'z vaqtida va samarali o'zlashtirilishini ta'minlash uchun yangi nazorat tizimi joriy etilishini, 13-may kunida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi ustuvor loyihalarni amalga oshirishni jadallashtirish masalalariga bag'ishlangan ma'ruzasida «Mamlakatimizda faol investitsiya siyosati olib borilayotganligini, investitsiya muhiti tobora yaxshilanib, ishbilarmon doiralarning yurtimizdagi loyihalarga katta qiziqishi ortayotganligi, Germaniya Federativ Respublikasi, Birlashgan Arab Amirliklari, Xitoy Xalq Respublikasi, Koreya Respublikasi va boshqa davlatlar tomonidan sanoat, energetika, infratuzilma, qurilish, transport, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash, ta'lim kabi sohalarga to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni kiritishi istagi borligini, investitsiya iqtisodiyot rivoji, xalqimiz hayot sifati va farovonligini ta'minlaydigan asosiy manbalardan biri ekanligi va mamlakat iqtisodiyotiga jalb qilinadigan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni zamonaviy sanoat korxonalari tashkil etishga qaratilishi zarurligi xususida gapirib o'tdi⁴¹.


Bu borada yurtimizda investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash milliy agentligi O'zbekistonga sarmoya kiritmoqchi bo'lgan xorijiy investorlarga yordam ko'rsatadi. Hukumat prezidentning

⁴¹ <https://president.uz/uz/2571>

keng ko'lamli xususiylashtirish rejasi doirasida, xususan, bank, energetika, neft va gaz, ishlab chiqarish, telekommunikatsiya, transport va qishloq xo'jaligi kabi muayyan tarmoqlarga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga intilmoqda.

O'zbekistonning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 2022-yil sentabrda mamlakat nominal YaIMning 3,8 foiziga teng o'sishni qayd etdi. Mamlakatda 2023-yilda umumiy qiymati 17,34 milliard dollar bo'lgan loyihalarni amalga oshirish rejalashtirilgan, bunda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 7,06 milliard AQSh dollarini tashkil etadi. 2022-yilda bo'lgani kabi, mablag'larning katta qismi (9,24 milliard AQSh dollari) sanoat, geologiya va energetikaga yo'naltiriladi. 2024-yilda 18,2 milliard dollarlik loyihalarni amalga oshirish rejalashtirilgan va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 7,73 milliard dollarga yetishi kutilmoqda (Qaror, 2022).

O'zbekistonning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalari holati



1-rasm. O'zbekistonning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalari (2014-yil martdan 2023-yil iyungacha)⁴²

Bizga ma'lumki, investitsiyalar turli xil mulkchilikning shakllaridagi moliyaviy, mulkiy va intellektual boyliklarni iqtisodiy-ijtimoiy samaradorlikka erishishi uchun muomalaga kiritish hamda yo'naltirish jarayonidir.

Iqtisodiy kateriya sifatida esa, investitsiyalar kapitalni ko'paytirish maqsadida ishlab chiqarishning deyarli barcha ob'ektlariga jalb qilinishi, yo'naltirishi va kiritilishi hisoblansa, ishlab chiqarish korxonalarida investitsiya loyihalarni amalga oshirish jarayonida esa investitsiya faoliyat ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro vujudga keladigina iqtisodiy munosabatlar sifatida ham ko'rish mumkin.

Ishlab chiqarish korxonalarining asosiy fondlarni investitsiyalash asosiy kapitalga qo'yilma ko'rinishida, yangi qurilishni kengaytirishga, rekonstruktsiya qilishiga, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarini texnik qayta jihozlashga, uskunalar, loyiha uchun zarur xomashyoni sotib olishga qilinadigan xarajatlar yig'indisidan tashkil topadi.

Birgina, 2023 yilning yanvar-sentyabr oylarida korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar-62,8 trln. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 27,7 % ini tashkil etdi. Bevosita to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtirilgan investitsiyalardan O'zbekiston Respublikasi bo'yicha 43,6 trln. so'm, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,5 % punktga ko'paygan holda jami ulushi 19,2 % ga teng investitsiyalar o'zlashtirildi⁴³.

Mamlakat iqtisodiyotida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar va o'sish sur'atlari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobiga to'g'ri kelmoqda. Bu ko'rsatkich 2022 yilning mos davriga

⁴² www.ceicdata.com ma'lumotlari asosida


⁴³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari. 2023 yil.

nisbatan 147,3 % ni tashkil etdi. Kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan 48,3 trln. so'm yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,1% punktga kamaygan holda jami ulushi 21,3 % investitsiyalar o'zlashtirilganligini ko'rish mumkin.

Bugungi kunda to'g'ridan-to'g'ri va kafolatlanmagan xorijiy kreditlar hisobidan quyidagi yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Bularga: Sirdaryo viloyatida quvvati 1500 MVt bo'lgan yangi elektr stantsiyasini, Buxoro viloyatida quvvati 500 MVt bo'lgan quyosh elektr stantsiyasini qurish qurish, 2021-2025-yillarda respublika neft-gaz hududlarida geologiya-qidiruv ishlarini olib borish, "Yoshlik 1" konini o'zlashtirish, "Mustaqillikning 25 yilligi" konida geologiya-qidiruv ishlarini amalga oshirish va konni o'zlashtirish, gaz-kimyo kompleksini barpo etish 2017-2023-yillarda uglevodorod xomashyosi qazib chiqarish hajmlarini ko'paytirish bo'yicha Dastur hamda 2020-2030-yillarda neft qazib chiqarish hajmlarini oshirish dasturlarini amalga oshirish va mineral o'g'itlar ishlab chiqarish kompleksini tashkil etish shular jumlasidandir.

Shuningdek, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan 19,1 trln. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi. Bunda, asosiy kapitalga investitsiyalarning 8,4 % ini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,9 % punktga ko'paygan, Aholi mablag'lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 10,3 % yoki 23,2 trln. so'm o'zlashtirildi. Aholi mablag'lari hisobidan asosan uyjoylar qurish sohasida investitsiya faoliyati amalga oshirilgan. Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida ishlab chiqarish sanoati yetakchilik qilmoqda.

Sanoat ishlab chiqarish korxonalari asosiy kapitaliga jalb qilingan investitsiyalar



2-rasm. Sanoat ishlab chiqarish korxonalari asosiy kapitaliga jalb qilingan investitsiyalar⁴⁴

Bugungi kunda sanoat ishlab chiqarish korxonalari asosiy kapitaliga jalb qilingan investitsiyalar miqdori 65,5 trln. so'mni tashkil qilib bu jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 28,9 % ni tashkil qiladi⁴⁵. Buni quyidagi rasm orqali ham ko'rish mumkin.

⁴⁴ Muallif ishlanmasi

⁴⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari. 2023 yil



3-расм. O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi trln. so‘m va ulushi % da⁴⁶

Keltirilgan ma'lumotlardan ham ko'rish mumkinki, sanoat ishlab chiqarishiga investitsiyalarning jalb qilinishi borasida qator imkoniyatlar yaratilganligini ko'rish mumkin. Ayniqsa, sanoat ishlab chiqarishida xorijiy investitsiyalarning roli nihoyatta katta ekanligi hech kimga sir emas. U orqali mamlakat iqtisodiyoti barqaror bo'libgina qolmay, rivojlanishda davom etadi.

Mamlakat iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning jalb qilinishining o'ziga xos ijobiy tomonlarini quyidagilardan ko'rish mumkin. Bularga:

- To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantiradi.**

 - Bu tashqi kapitalning asosiy manbai, shuningdek, mamlakat uchun daromadlarni oshiradi. Bu ko'pincha investitsion mamlakatda ba'zi mahalliy uskunalar - xoh u materiallar yoki ishchi kuchidan foydalaniladigan zavodlarning ochilishiga olib keladi. Bu jarayon xodimlarning malaka darajasiga qarab takrorlanadi.
- To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar ish bilan ta'minlanish imkoniyatlarini oshiradi.**

 - Mamlakatda, ayniqsa rivojlanayotgan davlatda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning ko'payishi bilan uning xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish sohalari o'sib bormoqda, bu esa o'z navbatida ish o'rinlari yaratilishiga olib keladi. Ish bilan ta'minlash, o'z navbatida, ko'pchilik uchun daromad manbalarining yaratilishiga olib keladi. Odamlar o'z daromadlarini sarflaydilar va shu bilan mamlakatning xarid qobiliyatini oshiradilar.
- To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar mamlakatning moliya va texnologiya sohasini yaxshilaydi**

 - To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar jarayoni barqarordir. U investitsiya amalga oshirilayotgan mamlakatni o'z foydasiga foydalanishi mumkin bo'lgan bir nechta vositalar bilan ta'minlaydi. Masalan, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar yuzaga kelganda, investitsiya qabul qilib oluvchi korxonalar moliya, texnologiya va operatsion amaliyotdagi eng so'nggi vositalardan foydalanish imkoniyati beriladi. Vaqt o'tishi bilan ilg'or texnologiyalar va jarayonlar mahalliy iqtisodiyotga o'zlashtiriladi, bu esa fan-texnologiya sanoatini yanada samarali qiladi.
- To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar mamlakatning qo'loq hududlarini rivojlantirishga va uni sanoat markaziga aylantirishga yordam beradi.**

 - To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar orqali ishlab chiqarilgan tovarlar ichki bozorga chiqarilishi va chet elga eksport qilinishi mumkin, bu esa boshqa muhim daromad oqimini yaratadi. Shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar mamlakatning valyuta kursi barqarorligini, kapital oqimini yaxshilaydi va raqobatbardosh bozorni yaratadi. Nihoyat, bu xalqaro munosabatlarni yumshatishga yordam beradi.

4-расм. Ўзбекистон Республикасида иқтисодий фаолият турлари бўйича асосий капиталга инвестициялар ҳажми трлн. сўм ва улуши % да⁴⁷

⁴⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari. 2023 yil

⁴⁷ Muallif ishlanmasi

Demak, xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotga jalb qilishning o'ziga xos ijobiy tomonlarini gapirganda investor portfelini diversifikatsiya qilishi, barqaror uzoq muddatli kreditlashni rag'batlantirishi, rivojlanayotgan mamlakatlarga moliyaviy yordam berishi va rivojlanayotgan mamlakatlarni texnologiya bilan ta'minlash holatlari kabi tomonlarini ko'rish mumkin ekan.

Xulosa va takliflar.

Xorijiy investitsiyalar mamlakatlar uchun iqtisodiy o'sish va rivojlanishning asosiy omili bo'lib hisoblanadi. Biroq, mamlakat iqtisodiyotida ishlab chiqarishga xorijiy sarmoyalarni jalb qilishning o'ziga xos yutuq va kamchiliklar ham mavjud bo'lib, bu aniq strategiya va investorlarga mamlakatingizga sarmoya kiritish uchun zarur imtiyozlar va himoyalarni taqdim eta oladigan qo'llab-quvvatlovchi muhitni talab qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, mamlakat iqtisodiyotida ishlab chiqarishga investitsiyalarni jalb qilishni yanada samarali amalga oshirishda mamlakatimiz iqtisodiyotiga ko'proq xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga yordam beradigan quyidagi beshta strategiya amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Mamlakatda barqaror va oldindan bashorat qilinadigan biznes muhitini yaratish.

Investorlar mamlakatga sarmoya kiritishda barqaror va bashorat qilinadigan biznes muhitini izlaydi. Bu shaffof me'yoriy-huquqiy baza, aniq qonunlar va siyosatlariga ega bo'lish va bu siyosatlarning izchil amalga oshirilishini anglatadi. Mamlakatlar, shuningdek, investorlar bilan ishonchni mustahkamlash uchun siyosiy barqarorlik va minimal korrupsiya mavjudligini ta'minlashi kerak.

Investorlarga yana ko'proq rag'batlantirish va soliq imtiyozlarini taklif qilish.

Hukumat xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun bir qator rag'bat va soliq imtiyozlarini taklif qilishi mumkin. Bularga soliq ta'tillari, pasaytirilgan tariflar va ayrim soliqlardan ozod qilish kiradi. Rag'batlar, shuningdek, muayyan tarmoqlar yoki hududlarga investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash uchun grantlar va subsidiyalarni o'z ichiga olishi mumkin. Biroq, bu imtiyozlar shaffof, maqsadli bo'lishi va xorijiy investorlar uchun nohaq ustunlik yaratmasligini ta'minlash muhim.

Malakali ishchi kuchini rivojlantirish. Malakali ishchi kuchi xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun juda muhim, chunki investorlar o'z faoliyatini qo'llab-quvvatlay oladigan iqtidorlar zaxirasini izlaydilar. Mamlakatlar o'zlarining ishchi kuchlarini rivojlantirish va jahon bozorida raqobatlasha oladigan ko'nikmalarga ega bo'lishlarini ta'minlash uchun ta'lim va o'qitish dasturlariga sarmoya kiritishlari kerak.

Infratuzilmaga sarmoya kiritish. Infratuzilma investorlar uchun qayerga sarmoya kiritish haqida qaror qabul qilishda asosiy elementlardan biridir. Mamlakatlar sarmoyadorlar uchun jozibador muhit yaratish maqsadida transport tarmoqlari, energiya va suv ta'minoti, kommunikatsiya texnologiyalari kabi muhim infratuzilmaga sarmoya kiritishi kerak. Bu, shuningdek, fuqarolarning hayot sifatini yaxshilash, mamlakatni yashash va ishlash uchun yanada jozibador joyga aylantirishi mumkin.

Kuchli xalqaro aloqalarni o'rnatish. Kuchli xalqaro aloqalarni o'rnatish mamlakatimizga xorijiy sarmoyalarni jalb qilishga yordam beradi. Mamlakatlar o'zlarining biznes muhitini rivojlantirish va sarmoyalarni jalb qilish uchun boshqa davlatlar, xalqaro tashkilotlar va global investorlar bilan hamkorlikni rivojlantirishlari mumkin. Bu, shuningdek, iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan yangi bozorlar va texnologiyalarga kirishni ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jozibador biznes muhitini yaratish, imtiyozlar berish, malakali ishchi kuchini rivojlantirish, infratuzilmaga sarmoya kiritish va mustahkam xalqaro aloqalarni o'rnatishga qaratilgan aniq va muvofiqlashtirilgan strategiyani talab qiladi. Ushbu strategiyalarga rioya qilish orqali mamlakatimiz xorijiy sarmoyalarni yanada qo'llab-quvvatlovchi va iqtisodiy o'sish va rivojlanishni rag'batlantiradigan muhitni yaratishi mumkin.

Adabiyotlar / Lomepamuya / Reference:

Adam Hayes, (2022). *Direct Foreign Investment (FDI): What it is, Types, and Examples*.

Qaror (2022) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-dekabrda "O'zbekiston respublikasining 2023-2025-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-459-son qarori

Ro'ziyeva Dilobar Isomjonovna (2023) "Raqobat strategiyasi" (Darslik). – T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 53-bet.

Wang H., Liang P., Li H., Yang R. (2016) "Financing Sources, R&D Investment and Enterprise Risk" // *Procedia Computer Science* 91 122 – 130 p.

Барабанова И.Ю. (2013) "Механизмы и методы финансирования инвестиционных проектов предприятия" // *Вестник университета*. – М.: – №4. 35-40 с.

Ғоziбеков Д. (1999) Инвестиция нима дегани? Бозор, пул ва кредит. W 9.40 б.

Гудель Ю.В. (2009) "Управление инвестиционной деятельностью промышленных предприятий". Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – М.: Московского государственного университета печати. - 24 с.

Дмитриева Е.В. (2015) "Модернизация системы финансирования инвестиционной деятельности промышленных предприятий". Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономический наук. М: Российская академия предпринимательства, -46 с.

Кузиева Н.Р. (2008) "Хорижий инвестициялар иштирокидаги корхоналар фаолиятини рағбатлантиришнинг молия-кредит механизмини такомиллаштириш йўналишлари". Иқтисод фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. –Т.: Ўзбекистон Республикаси Банк-молия академияси. - 41 б.

Мурожаатнома (2022) Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси 2022 йил 20 декабрь <https://president.uz/uz/lists/view/5774>